

## Buxoro viloyatida 2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

### Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -  
6 821,4 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati -  
2,2 m.**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 821,4 mlrd. so‘mni** yoki o‘tgan yilga ga nisbatan **2,2 m.** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **5 023,0 mlrd. so‘m** yoki **73,6 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **1 192,2 mlrd. so‘m**, yoki **17,5 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2022- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **373,4 mlrd. so‘m**, jami investitsiyalardagi ulushi **5,5 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **6 448,0 mlrd. so‘m**, jami investitsiyalardagi ulushi **94,5 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	6 821,4	1,4	10,6	6,9	7,1	73,6	0,4	-
Buxoro sh	822,1	4,4	29,1	12,2	14,1	40,0	0,2	-
Kogon sh	54,8	-	38,7	20,0	16,4	24,9	-	-
Olot	227,2	0,5	3,3	12,9	6,7	76,6	-	-
Buxoro	516,0	0,8	2,7	8,8	9,1	78,6	-	-
Vobkent	92,3	0,1	5,0	24,1	14,8	56,0	-	-
G'ijduvon	168,1	0,8	4,6	25,6	30,4	38,6	-	-
Kogon	2 335,0	0,1	0,9	1,4	2,9	94,7	-	-
Qorako'l	81,0	3,2	7,2	35,0	25,1	7,7	21,8	-
Qorovulbozor	251,4	0,9	18,8	1,5	2,7	76,1	-	-
Peshku	65,2	0,2	5,2	65,8	18,2	10,6	-	-
Romitan	2 010,9	2,0	17,0	2,5	4,4	73,8	0,3	-
Jondor	136,8	1,0	6,5	21,5	18,4	52,6	-	-
Shofirkon	60,6	6,7	5,2	48,1	21,9	18,1	-	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo'yicha tarkibi**

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, %da
<b>Jami</b>	<b>6 821,4</b>	<b>2,2 m.</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan:</b>	<b>373,4</b>	<b>101,8</b>	<b>5,5</b>
Respublika byudjeti	95,4	85,8	1,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	26,2	-	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	251,8	125,8	3,7
<b>Markazlashmagan:</b>	<b>6 448,0</b>	<b>2,4 m.</b>	<b>94,5</b>
Korxona mablag'i	724,7	108,6	10,6
Aholi mablag'i	467,5	116,3	6,9
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4 771,2	3,7 m.	69,9
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	484,6	159,1	7,1

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

### Markazlashgan




■ Byudjet mablag'lari

■ O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari


■ Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

### Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarning o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **3 635,2** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **53,3** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **2 959,9** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **43,4** % i) va boshqa xarajatlarga **226,3** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **3,3** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridaagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tashish va saqlash faoliyati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **2 913,3 mlrd. so'm** yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **42,7 %** i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari tog'-kon sanoatiga **16,6 %** (yoki **1 129,8 mlrd. so'm**), ishlab chiqaradigan sanoatiga **12,7 %** (yoki **868,4 mlrd. so'm**), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **7,4 %** (yoki **503,7 mlrd. so'm**), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **5,4** (yoki **370,8 mlrd. so'm**), uy-joy qurilishiga **4,9 %** (yoki **336,1 mlrd. so'm**), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **1,9 %** (yoki **128,8 mlrd. so'm**), ta'llimga

**0,7 %** (yoki **46,5** mlrd. so‘m), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni ta’mirlashga **3,4 %** (yoki **230,9** mlrd. so‘m), qurilishga **1,3 %** (yoki **88,3** mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga **0,7 %** (yoki **47,8** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **2,3 %** (yoki **156,9** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2022- yil yanvar-mart oylarida **5 023,0** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **73,6 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **3,4 m.** ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **710,4** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **14,1 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **4 312,6** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **85,9 %** ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tashish va saqlashga **2 690,1** mlrd. so'm (yoki **53,6** %), tog'-kon sanoatiga **827,7** mlrd. so'm (yoki **16,5** %), ishlab chiqarish sanoatiga **684,1** mlrd. so'm (yoki **13,6** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **223,5** mlrd. so'm (yoki **4,6** %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **351,8** (yoki **7,0** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **102,3** mlrd. so'm (yoki **2,0** %), qurilishga **17,6** mlrd. so'm (yoki **0,4** %) va boshqa faoliyat turlariga **125,9** mlrd. so'm (yoki **2,3** %) to'g'ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so‘mda)

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsi- yalar	O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	5 023,0	624,6	251,8	4 146,6
Buxoro sh.	328,5	50,6	181,0	96,9
Kogon sh.	13,6	1,6	3,9	8,1
Olot	174,1	48,7	64,3	61,1
Buxoro	405,9	336,6	0,2	69,1
Vobkent	51,7		0,2	51,5
G‘ijduvon	65,1		0,3	64,8
Kogon	2 212,9	83,3	1,3	2 128,3
Qorako‘l	6,2	0,9		5,3
Qorovulbozor	191,1	76,8		114,3
Peshku	6,9			6,9
Romitan	1 484,0		0,3	1 483,7
Jondor	72,0	15,4	0,3	56,3
Shofirkon	11,0	10,7		0,3

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Kogon tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **2 335,0** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **14,8** m. ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Romitan tumani egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **2 010,9** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **153,9** % ni tashkil qildi. Buxoro shahri **822,1** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **121,6** % ni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami</b>	<b>3 445,1</b>	<b>2,2 m.</b>
Buxoro sh	2 890,6	120,3
Kogon sh	877,8	3,0 m.
Olot	2 238,5	125,2
Buxoro	2 991,6	3,2 m.
Vobkent	641,7	157,6
G'ijduvon	538,4	168,0
Kogon	28 720,7	14,5 m.
Qorako'l	483,1	135,5
Qorovulbozor	13 163,1	2,2 m.
Peshku	513,7	116,4
Romitan	13 716,7	151,2
Jondor	761,6	2,1 m.
Shofirkon	333,1	64,2

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Kogon tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **28 720,7** ming so'mni, o'sish sur'ati **14,5 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Romitan tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **13 716,7** ming so'mni, o'sish sur'ati **151,2 %** ni tashkil qildi. Qorovulbozor tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **13 163,1** ming so'mni, o'sish sur'ati **2,2 m.** ni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

2022- yilning yanvar-mart oylarida umumiyl maydoni **276,3** ming kv.m. bo'lgan **1 556** xonadonli **1 079** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,4** foizni tashkil etdi. Shundan umumiyl maydoni **196,9** ming kv.m bo'lgan **856** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **118,8 %**) Turar-joylarni qurilishiga **334,0** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni:** (65) 223-81-99